

MUZEYLARDA ZOOLOGIYA KOLLEKSIYASIGA OID MUZEY ASHYOLARINI
RESTAVRATSIYA QILISH MASALALARI

Norqobilov Murodjon Mirzoaliyevich

O'zbekiston davlat tabiat muzeyi bo'lim mudiri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10425553>

Annotatsiya. Ushbu maqolada muzeylar fondlarida saqlanayotgan zoologiya kolleksiyasiga oid muzey ashyolarining saqlanishi va ularning restavratsiyasi, o'ziga xos tomonlari, muammolar va yechimlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Konservatsiya, restavratsiya, taksidermiya, taksidermist, tulum, eksponat.

ISSUES OF RESTORATION OF MUSEUM OBJECTS RELATING TO THE
ZOOLOGY COLLECTION IN MUSEUMS

Abstract. This article provides information on the storage and restoration of museum exhibits related to the zoological collection and located in museum collections, as well as their specific aspects, problems and solutions.

Keywords: Conservation, restoration, taxidermy, taxidermist, scarecrow, exhibit.

ВОПРОСЫ РЕСТАВРАЦИИ МУЗЕЙНЫХ ПРЕДМЕТОВ ЗООЛОГИЧЕСКОЙ
КОЛЛЕКЦИИ В МУЗЕЯХ

Аннотация. В данной статье представлена информация о хранении и реставрации музейных экспонатов, относящихся к зоологической коллекции и находящихся в музейных фондах, а также об их специфических аспектах, проблемах и решениях.

Ключевые слова: Консервация, реставрация, таксидермия, таксидермист, чучело, экспонат.

Tabiiy va tarixiy-o'lkashunoslik muzeylari uchun xos bo'lgan zoologiya kolleksiyasiga oid muzey ashyolarini saqlash va ularni restavratsiya qilish birmuncha murakkab jarayondir. Sababi, bunday turdagi ashyolarning asosi jonivorlar va qushlarning tulumlari bo'lib, vaqt va turli omillar ta'sirida tulumlarning patlari va junlari to'kilishi, terisining yemirilishi yoki o'zgarishga uchrashi tabiiy jarayondir.

O'zbekiston davlat tabiat muzeyi fondida ham bugungi kunda asosiy qismini hayvonlar, qushlar va sudralib yuruvchilarning tulumlari tashkil etgan 1000 dan ortiq zoologiya kolleksiyasiga oid bo'lgan muzey ashyolari mavjud bo'lib, ularning konservatsiya va restavratsiyasini doimiy ravishda amalga oshirib borish muhim vazifa sanaladi.

Zoologiya kolleksiyasiga oid bo'lgan muzeyga kelib tushgan yangi ashyolar muzey fondiga kiritilishidan oldin maxsus dizokameraga olinib, birinchi sanitariya ishlovidan o'tkazilishi shart. Bu orqali tulumda mavjud bo'lgan turli zararli hashorot, zamburug' va bakteriyalarning yo'q qilinishiga va fondagi boshqa muzey ashyolari ham zararlanishining oldi olinishiga erishiladi. Muzey ashyolari maxsus ishlov jarayonlaridan o'tkazilib, fond saqlov xonlariga joylashtirilganda ularning to'g'ri saqlanishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Tulumlar saqlov xonalarida +18-24 C° haroratda, namlik 55-65% dan, yorug'lik 75 lyuksdan oshmagan holatda saqlanishi maqsadga muvofiq. Agarda saqlov xonalaridagi namlik me'yordan ortib ketadigan bo'lsa, tulumlarning terisi deformatsiyaga uchrashi mumkin. Shuningdek, ularga quyosh nurlarining to'g'ridan-tog'ri tushishi oqibatida tulumlar rangining o'chishi, o'zgarishi, hattoki yonib ketishi kuzatiladi. Sababi, shahar sharoitida avtomobillar va turli korxonalardan havoga har xil zararli kimyoviy birikmalarning ajralayotgan bo'lishi tabiiy. Ulardan eng xavflisi oltingugurt dioksidi bo'lib, u namlik bilan qo'shilib sulfat kislotaga aylanadi va har qanday muzey eksponatini zararlashi mumkin. Shu sababli ham tulumlarning maxsus himoyalangan germetik vitrinalarda saqlanishi talab etiladi.

Har bir tulum fond zahira xonalaridan olinib, ekspozitsiya va turli ko'rgazmalarga tayyorlanishi oldidan restavrator nazoratidan o'tadi. Agar tulumlarda biror bir nuqson yoki o'zgarish aniqlansa ular tegishlicha hujjatlashtirilib, restavratsiyaga yuboriladi. Restavratsiya jarayoni maxsus mutaxassis restavrator (taksidermist) tomonidan ashyo tegishli bo'lgan muzey fondinining muhofizi yoki fond saqlovchi bo'limning mas'ul ilmiy xodimlari kuzatuvida amalga oshiriladi.

Restavratsiya jarayoni taksidermistdan maxsus bilim, yuqori malaka va ko'nikmalarni talab etadi. Taksidermist ko'plab mutaxassisliklar chorrahasida ish olib boradi. U biologiya, fiziologiya va hayvonlar anatomiyasi bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lishi, ishlatiladigan xom ashyolarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini mukammal bilishi lozim. Shuningdek, taksidermist yuqori tasviriy-badiiy mahoratga ham ega bo'lishi kerak.

Biror bir nuqson aniqlangan hayvon tulumini restavratsiya qilishning dastlabgi jarayoni uning tana tuzilishini yaxshilab o'rganish hisoblanadi. Bu restavratsiya qilinayotgan hayvonning shaklini (figurasini) bexato qayta yaratishga yordam beradi. Tulumlarning shikastlanganligiga qarab har bir ashyoga turlicha yondoshuvdagi ta'mirlash ishlari olib boriladi. Kirlangan yoki chang bilan qoplangan tulumlarni tozalash doimiy va rejali ravishda amalga oshirilishi lozim. Restavratsiya qilishda taksidermistlar va restavratorlar odatda qo'lqop va respirator bilan ishlashadi. Lekin, XX asrning oxirida ko'pgina eksponatlar zararli hasharotlardan himoya qilish

maqsadida simob va mishyak bilan ishlov berilganligini hisobga olsak, yaxshi himoyalanmagan vositalar bilan ish olib borish sog'liq uchun birmuncha xavf tug'diradi. Bu ayniqsa, tozalash jarayonida tulumlardan uchib, havoda tarqalgan chang nafas yo'liga tushib, zararlash ehtimoli bor. Shu sababli, taksidermistdan yuqori sifatli va zamonaviy himoya vositalari bilan ish olib borish talab etiladi.

Tulumlarni changdan tozalash uchun maxsus changyutgichdan yoki maxsus fenlardan foydalaniladi. Shuningdek, quruq yoki nam momiq paxta bilan avaylab, qushlar tulumlari patlari, hayvonlar tulumlari junlari ularning o'sish yo'nalishi bo'yicha tozalanadi. Tulumlar tozalangach zararkunandalarga qarshi maxsus preparatlar bilan ishlov beriladi.



Quyov tulumining tozalanishdan oldingi vakeyingi holati

Hayvonlar yoki qushlar tulumlarining ko'zlari tushib ketgan bo'lsa unga qo'yish uchun hayvon yoki qushga mos keladigan sun'iy shisha ko'zlar ehtiyotkorlik bilan tanlanadi. Ko'zlarni tanlashda ko'z qorachig'ining o'lchami, rangi va shaklini mukammal darajada aniqlab olish lozim. Sun'iy ko'zlar uy hayvonlari do'konlaridan sotib olinadi yoki ular maxsus ko'z protezlari fabrikasiga buyurtma qilinishi mumkin.

Hayvon tulumiga ko'zni o'rnatish oddiy ishdek ko'rinsada, undagi asosiy qiyinchiliklar ko'zni qovoqda joylashish chuqurligining aniq o'rnini topish, ko'z olmasining boshga nisbatan to'g'ri egilish burchagini aniqlash, ko'zlar oralig'idagi masofani to'g'ri aniqlash, ko'zlar orqali aynan shu turga xos bo'lgan va uni boshqa hayvonlardan ajratib turadigan xususiyatni aks ettirish hamda, ko'z orqali hayvonga jonli ifoda berish muhim ahamiyatga ega.



Hozirgi kunda tulumlarning faqatgina terisi tabiiy bo'lib, deyarli qolgan hamma narsasi sun'iydir. Shuning uchun ham, ko'pincha hayvonning tish, tumshuq qismi, tirnoqlar, tuyoqlar, panjalari asosan plastik xomashyolardan, tillari esa silikondan yasaladi. Masalan, yo'lbarsning tili restavratsiya qilinishida tilining tabiiy go'shtdek ko'rinishi uchun u silikondan qolipga quyilib, shakl beriladi. Vaqt o'tishi bilan terining qurib borishi hisobiga ba'zi hayvon va qush tulumlarining tishlari va tirnoqlari qayrilib, ko'zlari oldinga bo'rtib chiqib qolishi kuzatiladi. Taksidermist bunday holatlarda tirnoq, tish va ko'zlarni restavratsiya ishlarini amalga oshirgach, tulumdagi terini ham muvofiq o'lchamlarda tuzatib, juda ham tarang tortib yubormasligi talab etiladi.

Qushlar tulumini dastlabki bosqichida texnologiyaga muvofiq tayyorlangan va yaxshi ishlov berilgan bo'lsa, unga turli zararkunandalar yaqinlashmaydi va u alohida parvarish talab qilmaydi. To'g'ri saqlash orqali ularni uzoq muddat asrash mumkin. Agarda qushlarning patlari to'kilgan bo'lsa shu qushning patlari rangiga mos keluvchi xomashyo sifatida olib qo'yilgan boshqa qushning patlaridan foydalanib qayta tiklanadi yoki suniy patlar ishlatiladi. Masalan Janubiy Amerikada yashovchi mitti qush – Kolibrining zararlangan tulumini tiklash uchun Qirol qushning patlaridan foydalaniladi.



Qirol qushi



Kolibri

Yirik, qalin junli hayvonlarning to'kilgan junlarini tiklash uchun esa shu hayvonga yaqin bo'lagan boshqa bir hayvonning junlaridan yoki sun'iy jundan foydalanib tiklanadi. Masalan babuyunning to'kilgan junlarini itning tuklaridan foydalanish orqali tiklash mumkin.

Agar hayvonning terisi ot, zebra kabi junlari qalin bo'lmasa, uning terisida hosil bo'lgan turli nuqsonlarni bartaraf etish uchun ehtiyotkorlik bilan maxsus bo'yoq tanlanadi va airograf yordamida rang sepilib, teridagi barcha tirnalishlar va nuqsonlar bartaraf etiladi. Ba'zi joylariga jun qo'shiladi, ranglanadi va quritiladi.

Ba'zan suv qushlari tulumlarining uzun bo'yinlari tanasiga ulangan joyidan ajralishi, yorilishi yoki sinib tushishi kuzatiladi. Bunday holatda tulumning bo'yin qismi alohida ajratib olinadi. Qush bo'yni orqali tulum ichiga kiradigan sim yoki yog'och konstruksiya qaytadan mustahkamlanadi, singan bo'yin qaytadan tanaga biriktirib yopishtiriladi, bitishgan joyning atrofidagi patlarga ishlov berilib, qaytadan tozalanadi.

Hozirgi kunda texnologiyalarning rivojlanishishi natijasida 3d printerlar orqali turli shaklga ega buyumlarni chop etish imkoniyati bor. Ba'zi turdagi restavratsiyaga muhtoj hayvon va qushlar tulumlarining tumshuqlari, tirnoqlari, jag'lari va panjalarini kerakli shaklga keltirib, 3D bosmadan chiqazish orqali ham yaratish mumkin. Ilonlar va echkiemar, toshbaqa kabi hayvonlar tulumlarini restavratsiya qilishda ham bu texnologiyadan foydalansa bo'ladi. Shuningdek ular tulumlarini rangini yaxshilash uchun aerazol yordamida ishlov berilishi, laklanishi yoki turli sinish kabi nuqsonlarni haykaltaroshlik texnikasida bartaraf etish ham mumkin.

Muzey fondlaridagi zoologiya kolleksiyasiga oid bo'lgan ashyolarning saqlanish muddatini oshirish uchun ularni o'rnatilgan talablarga muvofiq saqlash, ularning holatini doimiy nazorat qilib borish, restavrator tomonidan rejali ravishda tulumlarni tozalab turish, texnika xavfsizligi qoidalariga amal doimiy amal qilinishi talab etiladi.

Hayvon tulumlarining muzey eksponatlari va turli ekspozitsiyalarda ko'rgazma ob'yekti sifatida namoyish etilishi tashrif buyuruvchilarga hayvonlarni yaqindan ko'rish, hamda ularning tashqi ko'rinishini yaxshiroq o'rganishga imkon beradi. Bunday imkoniyat ochiq tabiatda, hattoki, hayvonot bog'ida ham kam bo'ladi. Bu orqali o'sib kelayotgan yosh avlod va jamiyatimizning turli yoshdagi a'zolari orasida tabiatga va jonivorlarga bo'lgan mehrini oshirish va ularni asrab-avaylashga o'rgatilib, targ'ibot ishlari tashkil etiladi.

REFERENCES

1. Заславский М. А., Изготовление чучел, муляжей и моделей животных. Общая таксидермия, Л., 1968. 352 с.
2. М. Заславский. Изготовление чучел мелких зверей // журнал «Охота и охотничье хозяйство», № 6, 1980. стр.16-17
3. А Шкулёв.Таксидермия — ремесло и искусство. Ж. «Мордовский заповедник» № 7. 2014 г. 32с.
4. Материалы Всероссийской конференции «Проблемы реставрации предметов из естественноисторических коллекций. Теория и практика» (1–5 февраля 2012 г., Санкт-Петербург). – М.: ГДМ, 2014. 162 с.
5. https://st-martin.ru/raznoe-2/kak-delayut-chuchela-zhivotnyx-kak-delayut_chuchela-kak-eto-sdelano.html
6. <https://hunts.in.ua/page138.html>

MODERN SCIENCE
& RESEARCH